

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI**

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI



“TASDIQLAYMAN”

**A. Avloniy nomidagi pedagogik
mahorat milliy instituti rektori**

A. Ismailov

“ 15 ” 01 2026-yil



“MA’QULLANDI”

**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasi raisi**

A. Yusupov

“ ” 2026-yil

Pedagogika fanlari bo‘yicha

13.00.02 – “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi”

(maktab ta’limi yo‘nalishi) ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon

D A S T U R I

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2026-yil**

“ 31.01 ” 381/4 -son qarori bilan tasdiqlangan

Toshkent-2026

ANNOTATSIYA

Ushbu dastur 13.00.02-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (*maktab ta'limi yo'nalishi*) ixtisosligi fanlari bo'yicha tayanch doktorantlar ba mustaqil tadqiqotchilarning nazariy va kasbiy tayyorgarlik darajasini, ushbu fanning shakllanishi va rivojlanishi tarixini, umumiy konsepsiyalari va metodologiya masalalarini, manbalarini, mazkur bilimlar tarmog'ining asosiy nazariy va amaliy muammolarini, mavjud materialni bilish darajasini aniqlab berishi, ularning ilmiy adabiyotlar, shu jumladan, chet el davriy nashrlarini hamda ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini egallaganlik darajasini aniqlash doirasida tuzilgan bo'lib, unda o'qitish metodikasining umumiy masalalari bilan bir qatorda har bir fanning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi tushunchalar, bilim va ko'nikmalarga qo'yiladigan talablar, imtihon savollaridan namunalar keltirilgan.

Tuzuvchilar :

Ergasheva Maloxat Tursunovna

pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Fayziyeva Mahbuba Rahimjonovna

*pedagogika fanlari doktori (DSc),
professor*

Nasrullayeva Fatima Azatovna

*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)*

Xurramov Isroil Abdurashidovich

*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent*

Taqrizchi:

Alkarova Feruza Nazarbayevna

*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)*

Shakadirova Nigora Irgashevna

*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)*

*Ushbu dastur institut A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
Kengashining 2026-yil 15-yanvardagi navbatdan tashqari 2-son majlisida
tasdiqlangan*

SO‘Z BOSHI

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (*maktab ta’limi yo’nalishi*) ixtisosligi bo’yicha ilmiy tadqiqotchilarni tayyorlash respublikamizda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlarini amalga oshirishning asosiy omillaridan biri bo’lib, uning o’ziga xosligi tadqiqotlar sohasi va yo’nalishining keng qamrovli ekanligi bilan belgilanadi. Mazkur ixtisoslik doirasida fanlarni o’qitish metodikasi va umumiy o’rta ta’lim, sinfdan va maktabdan tashqari ta’limga oid pedagogik muammolar hal etilishi ko’zda tutiladi. Ushbu ixtisoslik pedagogika fanining mamlakatimiz ta’lim tizimi bosqichlarida umumta’lim fanlari bo’yicha ta’lim mazmuni va metodikasini takomillashtirishning metodik asoslarini ishlab chiqishga oid muammolarni tadqiq etuvchi mustaqil soha bo’lib, mazkur ixtisoslik bo’yicha bajarilgan dissertatsiya ishlari Respublikamiz uzluksiz ta’lim tizimining taraqqiyotiga muayyan hissa qo’shishga qaratiladi. Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (*maktab ta’limi yo’nalishi*) ixtisosligi sohasiga oid dissertatsiyalarda jamiyatning ijtimoiy-madaniy, ma’naviy-ma’rifiy jabhalardagi o’zgarishlar talablari asosida umumta’lim fanlarini o’qitish mazmuni va metodikasini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik, metodik asoslari, davlat ta’lim standartlarini takomillashtirish metodologiyasi, fanlarni o’qitish metodikasining qadimiy-tarixiy hamda zamonaviy mazmuni, metodlari, shakllari, vositalariga bag’ishlangan ilmiy-nazariy, amaliy-metodik muammolar tadqiq etiladi.

Talabgorning 13.00.02 - “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” (*maktab ta’limi yo’nalishi*) ixtisosligidan o’rganilishi zarur bo’lgan minimum bilimlar mazmuni

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasining metodologik asoslari. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari. Ta’lim tizimi va turlari. Pedagogik jarayonlarni nazariy va amaliy jihatdan chuqur tadqiq etish, o’qitish va tarbiyalashning ilmiy asoslarini aniqlash, ularni takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqish, yo’nalishning metodologik asoslari, pedagogik jarayonlarni o’rganishda qo‘llaniladigan ilmiy yondashuvlar, konseptual g‘oyalar, tadqiqot metodlari va ilmiy-pedagogik kategoriyalar. Pedagogik metodologiya ta’lim va tarbiya jarayonini ilmiy bilishning konseptual poydevori ekanligi. Pedagogik hodisalarni o’rganishning nazariy tamoyillarini, yondashuvlarini, ilmiy tadqiqot metodlari. Metodologiyaning vazifalari. Umumilmiy metodologiyaning fanlararo yondashuvlarga asoslanishi. Ta’lim jarayonining kompleks va ko‘p omilli tuzilishini ilmiy tahlil qilishda tizimli, faoliyat, kompetensiyaviy, texnologik, integrativ yondashuvlar va konstruktivizm. Ta’lim va tarbiya nazariyasi hamda metodikasining tamoyillari. O’qitish usullari, pedagogik texnologiyalarni tanlash, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, o‘quv jarayonini boshqarish va natijalarni tahlil qilish. Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasining metodologik manbalari. Pedagogik tadqiqotlarning metodologik tamoyillari. Pedagogik tadqiqot metodlari.

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat siyosati. 2023-yil 30-apreldagi yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta’lim va

tarbiyaga qaratilgan moddalarning ahamiyatliligi haqida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli farmonida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirishga oid belgilangan vazifalarning mohiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning nutq va ma'ruzalarida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirishga doir yangicha yondoshuvlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 79-sonli farmonida belgilangan vazifalar mohiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 6097-sonli farmonida ilm fanni rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar mohiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 358-son Qarorida ta'lim sohasida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish va ustuvor loyihalarni amalga oshirishda foydalanish masalalari. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi 901-son Qonunida o'qituvchilarning huquq va majburiyatlarini belgilovchi normalar mazmuni.

Ta'lim texnologiyalari va o'qitish metodlari. Ta'lim texnologiyalari oldindan qo'yilgan tashxislanuvchi aniq maqsadlar va etalon asosida ta'lim jarayonini loyihalashtirish va kutilayotgan natijani kafolatlovchi tartiblangan, tizimlashtirilgan xatti-harakatlar, amallar va muammolar majmuasi sifatida. Pedagogik texnologiyalarning asosiy turlari. Rivojlantiruvchi, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan moduli, muammoli, didaktik o'yinli, kontekstli, axborotli, tabaqalantirilgan, multimediali, o'z-o'zini rivojlantiruvchi texnologiyalar. Ta'lim nazariyasi va metodlari. Metod haqida tushuncha va uning tasnifi. Ta'limning og'zaki metodlari, o'qitishning induktiv va deduktiv metodlari. Reproduktiv va muammoli-izlanuvchan o'qitish metodlari. O'qitishda o'quvchini rag'batlantirish metodlari. O'qitishni va uning natijalarini nazorat qilish metodlari. O'qitish natijasini baholash psixologiyasi. Tashxislovchi, ogohlantiruvchi, joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari. Og'zaki, yozma va kompyuterli nazorat turlari. O'qituvchi va o'quvchi faoliyatini, o'qitish natijalarini baholashda xolislik va "formalizm"ga yo'l qo'ymaslik shart-sharoitlari. Psixologik-pedagogik diagnostikaning asosiy muammolari. Ta'lim jarayonini tashkil etish modellari. Ta'lim muassasalarining tiplari. Ta'limda innovatsion jarayonlar. Mualliflik maktablari. O'qitishni dialogli, guruhli va ommaviy (frontal) tashkil etish shakllari. Sinf dars tizimi. O'qitishni tashkil etishning boshqa shakllari: praktikumlar, seminarlar va fakultativlar. O'quvchilarning uy vazifasi bajarishlarini tashkil etish muammolari. Mustaqil ta'lim (eksternat); kunduzgi va sirtqi, masofaviy va boshqalar.

Ta'lim vositalari. Moddiy - ma'naviy madaniyat elementlari va predmetlari ta'lim vositasi sifatida. Ta'lim mazmunini didaktik vositalar orqali modellashtirish. Ta'lim vositalarining ko'p xilligi va uni sistemallashtirish. Dasturiy pedagogik

vositalar. Ta'limda audiovizual va kompyuter vositalari. Telekommunikatsion o'quv vositalari. Avtomatlashgan ish o'rni. Fanni o'qitish metodikasining predmeti. Fanni o'qitish metodikasining tarkibiy qismlari. Umumiy o'rta ta'limda darsdan va sinfdan tashqari fan ta'limining maqsadlari. Fan ta'limida didaktik tamoyillarni amalga oshirish. Darslarda tarbiyalash va rivojlantirish: ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, estetik va ma'naviy tarbiya. Mantiqiy va obrazli tafakkurni rivojlantirish, fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish.

Fanni o'qitishning metodlari va shakllari. Ularning tasnifi. Umumdidaktik va xususiy predmetli o'qitish metodlarini o'zaro aloqadorligi. Fanni o'qitishning empirik metodlari: kuzatish, tajriba, o'lchash. Mantiqiy metodlari: taqqoslash va analogiya, umumlashtirish, abstraksiyalash, konktretlashtirish, induksiya va deduksiya, analiz va sintez. Maktab va o'rta maxsus ta'lim fan kursining mantiqiy-didaktik tahlili. Ta'limning turli: frontal, jamoaviy, guruh, individual shakllarining o'ziga xos xususiyatlari va o'zaro aloqadorligi.

Fanni o'qitishning tashkiliy shakllari. Dars va uning xususiyatlari. Asosiy dars tiplari. O'qituvchining darsga tayyorlanish tizimi. O'quvchilar bilimi, ko'nikma va malakalarini tekshirish va baholash: nazorat ishlari, mustaqil ishlar, uy vazifalari, test sinovlari. Fanni o'qitishda asosiy vositalar: darsliklar, didaktik va metodik qo'llanmalar, jadvallar, modellar, sxemalar, kompyuter va boshqalar.

Fan xonasi. Fan bo'yicha sinfdan tashqari ishlar va ularning asosiy funksiyalari. Fanning asosiy ko'rinishlari va tasnifi. To'garak, fakultativ mashg'ulotlar va olimpiadalar tashkil qilish.

Pedagogik tajribalarni o'tkazish. Fanni o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy izlanishlar o'tkazishning o'rni, ahamiyati va asosiy vazifalari. Pedagogik tajribani o'tkazishning asosiy bosqichlari: tasdiqlovchi, shakllantiruvchi, ta'limiy, umumlashtiruvchi bosqichlari va boshqalar.

Matematik-statistik metodlardan foydalanib olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish.

Fanlarning xususiy masalalari.

Filologiya fanlari yo'nalishi. O'quv predmetining nazariy asoslarini; badiiy asarni lingvistik tahlil qilish va baholash mezonlarini bilishi; ona tili o'qitishda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini o'stirishning shakl va usullarini; dars jarayoniga qo'shimcha adabiyotlarni, yangi axborot hamda turli pedagogik texnologiyalarni jalb qila olishni, metodika sohasidagi yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalarini bilishi kerak. Filologiya fanlarni o'qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari. O'quv predmeti sifatida filologiya fanlariga xarakteristika, o'qitish usuliga xarakteristika, filologiya fanlari davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, o'qitishning an'anaviy va ilmiy usullari, filologiya fanlarini o'qitishni tashkil etish shakllari, vositalari, ko'rgazmali qurollar va o'qitishning texnik vositalari. Maktab ta'limi tizimida filologiya fanlarini o'qitishning innovatsion pedagogik faoliyatini amalga oshirish usullari. Filologiya fanlarining boshqa fanlar bilan bog'liqligi. O'qitishda keyslar ishlab chiqish va ularni o'quv jarayoniga joriy qilish metodikasi. Fanni o'qitishning umumiy metodikasi, filologiya fanlarining dasturlari, darsliklarning tuzilishi, darslarda

modul tizimidan foydalanish, muammoli ta'lim to'g'risida tushuncha, sinfdan tashqari mashg'ulotlarning filologiya fanlarini o'qitishdagi ahamiyati.

Aniq va tabiiy fanlar yo'nalishi. Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari. O'quv perdmoti sifatida aniq fanlarga xarakteristika, o'qitish usuliga xarakteristika, aniq fanlardan davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, o'qitishning an'anaviy va ilmiy usullari, aniq fanlarni tashkil etish shakllari, aniq fanlarni o'qitishda ta'lim vositalari, ko'rgazmali qurollar va o'qitishning texnik vositalari. Maktab ta'limi tizimida aniq fanlarni o'qitishning innovatsion pedagogik faoliyatini amalga oshirish usullari. Aniq fanlarning tabiiy va gumanitar fanlar bilan bog'liqligi. Fanni o'qitishda keyslar tuzish va ularni o'quv jarayonida qo'llash metodikasi. Aniq va tabiiy fanlarni o'qitishning umumiy metodikasi, qisqacha tarixi, tabiiy fanlarning dasturlari, darsliklarning tuzilishi, darslarda modul tizimidan foydalanish, muammoli ta'lim, loyihaga asoslangan ta'lim to'g'risida tushuncha, sinfdan tashqari mashg'ulotlarning aniq va tabiiy fanlarni o'qitishdagi ahamiyati. o'qitishning material bazasi xillari, o'quv xonasi va tirik burchaklarni tashkil qilish hamda jihozlash.

Biologiya. Ta'limda biologiyani o'qitishga qo'yiladigan talablar. Biologiyani o'qitishda pedagogik, axborot-kommunikatsiya va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Biologiyani o'qitishda barkamol shaxsni voyaga yetkazish muammolari. Biologiyani o'qitishda o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan va rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali yuksak ma'naviyatli barkamol shaxsni voyaga yetkazish yo'llari. Biologiyani o'qitishda o'quvchilarda mustaqil, ijodiy, tahliliy va tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirish. Biologiyani o'qitishda o'quv munozaralari va keys texnologiyasidan foydalanish orqali ularda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'zbekistonda Ekologiya harakati dasturi va biologiyani o'qitishda mazkur masalalarni hal etish yo'llaridan foydalanish muammolari. Biologiyani o'qitishda amaliy masalalarga e'tiborni qaratish: atrof-muhitni ko'klamzorlashtirish, fanning xalq xo'jaligi tarmoqlarida tutgan o'rnini yoritish, biologiyaning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda tutgan o'rni, darsdan tashqari ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etish, o'quvchilarni aqliy, ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy, estetik, ekologik, jismoniy, jinsiy, mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda sog'lom turmush ko'nikmalarini tarkib toptirish masalalari. O'quvchilarni ekologik tarbiyalash mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari; O'quvchilarda sog'lom turmush ko'nikmalarini tarkib toptirish mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari.

Kimyo. Kimyo darslarining tiplari va turlari. Ma'ruza, seminar, muammoli, modulli, didaktik-o'yinli, laboratoriya darslari va amaliy mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyatlari. O'quv tarbiyaviy jarayonga tizimli yondashuvning mohiyati. Kimyo darslariga qo'yiladigan metodik talablar. Kimyo fani o'qituvchisi (kasbiy tayyorgarligi, ijodiy va ijtimoiy faolligi, ma'naviy-axloqiy sifatleri, g'oyaviy-siyosiy yetukligi)ga qo'yiladigan umumiy talablar. Kimyo fanidan laboratoriya, amaliy va seminar mashg'ulotlarning maqsadi, vazifalari, mazmuni, tuzilishi va

ularni o'tkazish metodikasi, ta'lim-tarbiya jarayonida tutgan o'rni. O'quvchilar bilish faoliyatini tashkil etish yo'llari. Kimyo fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik, axborot va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish. Kimyo fanidan darsdan tashqari ishlar. Kimyoviy ekskursiyalarni tashkil etish va o'tkazish. Kimyoviy ekskursiyalarning maqsadi, vazifalari, ta'lim-tarbiya jarayonida tutgan o'rni. O'quv dasturlarida belgilangan ekskursiyalarning mazmuni, tashkil etish va o'tkazish metodikasi. Ekskursiya materiallarini qayta ishlash va kimyo fani darslarida foydalanish. Kimyodan sinfdan tashqari mashg'ulotlar. Kimyo fanidan sinfdan tashqari mashg'ulotlarning maqsadi, vazifalari, ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning turlari: o'quvchilar bilan yakka tartibda olib boriladigan, guruhli va ommaviy mashg'ulotlar. O'quvchilarning yakka tartibda ilmiy-tadqiqot va ijodiy ishlarini tashkil etish, kimyo xonasida mustaqil ravishda tajribalar va kuzatishlar o'tkazish, kuzatish kundaligini yuritishni o'rganish.

Xorijiy tillar yo'nalishi. Chet tilini o'rgatishning ilmiy metodikasi. Chet tillarni o'qitish metodikasining o'ziga xos muammolari. Metodik atamalarning talqini, chet tillarni o'qitish metodikasida vujudga kelgan zamonaviy nazariyalar. Chet tili o'qitish metodikasi tamoyillarining mazmun-mohiyati. Chet tili o'qitishning maxsus tamoyillari. Didaktik tamoyillarni chet tili o'qitish metodikasiga tatbiq etish xususiyatlari. Chet tili o'qitish vositalari. Asosiy, yordamchi vositalar. Chet tili o'qitishda axborot texnologiyalaridan, sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish metodikasi. Jahonda chet tilini o'qitish metodikasining tarixi, O'zbekistonda chet tilini o'qitish tarixi, umumiy o'rta ta'lim tizimida chet tili o'qitish metodikasi. Qiyosiy metodika, maxsus metodika. Tilshunoslik (umumiy tilshunoslik, chet va ona tillari qiyosiy tipologiyasi, lingvistik tadqiqot asoslari).

Ijtimoiy va gumanitar fanlar yo'nalishi. Ta'limda tarixni o'qitishga qo'yiladigan talablar. Tarixni o'qitishda pedagogik, axborot-kommunikatsiya va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Tarixni o'qitishda barkamol shaxsni voyaga yetkazish muammolari. Tarixni o'qitishda o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan va rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikalari asosida ma'naviyatli barkamol shaxsni voyaga yetkazish masalalari. Tarixni o'qitishda o'quvchilarda mustaqil, ijodiy, tahliliy va tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirish. Tarixni o'qitishda o'quv munozaralari va keys texnologiyasidan foydalanish orqali o'quvchilarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish. Tarixni o'qitishda o'quvchilarda ongli intizom, burch, ma'suliyatni tarkib toptirish muammolari. Tarixni o'qitishda etnografik masalalarga e'tiborni qaratish: fanni kasbga yo'naltirib o'qitish, tarixning mamlakat ijtimoiy hayotini rivojlantirishda tutgan o'rni, darsdan tashqari ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etish, o'quvchilarni aqliy, ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy, estetik, ekologik, jismoniy, jinsiy, mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda sog'lom turmush ko'nikmalarini tarkib toptirish masalalari.

Geografiya o'qitish nazariyasi va metodikasi fanining maqsadi. Geografiya o'qitish metodikasining nazariy va metodologik muammolari. Geografiya o'qitish

jarayonida pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga tadbiq etish yo'llari. DTS talablari, o'quv dasturlari, darsliklar. Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Geografiya ta'limida sinfdan tashqari ishlar. Geografiya fan to'garagi, geografik maydoncha va uni tashkil etish, foydalanish metodologiyasi. Geografiyada ekskursiyaning o'rni.

Texnologiya. O'quvchi-yoshlarni mustaqillik mafkurasi va milliy g'oyalari asosida tarbiyalashda texnologiya fani mazmunini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish. Texnologik ta'lim tizimiga zamonaviy pedagogik, axborot va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning didaktik asoslarini ishlab chiqish. Texnologiya fanini o'qitishning didaktik prinsiplari. Umumiy o'rta ta'lim maktablari, tashxis markazlari uchun texnologiya fani o'qituvchilari hamda kasb tanlashga yo'llash ishlari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash muammolari. Maktab ta'lim uchun o'quv-metodik adabiyotlar majmuasini yaratishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish. Texnologiya fani va texnologik ta'limda uzviylik va uzluksizlik masalalari. Texnologiya fanidan davlat ta'lim standarti talablari asosida ta'lim muassasalari uchun o'quv-metodik majmualarni takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Texnologiya fani o'qituvchilarining malakasini oshirish hamda amaliy-metodik bilimlarini uzluksiz takomillashtirib borish muammolari. O'quvchilarni texnologik va umumkasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda nazorat qilishning didaktik asoslari. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda texnologiya va dizayn ta'limi, kasb tanlashga yo'llash ishlarining mazmuni, uning tashkiliy-pedagogik, metodik va ilmiy asoslarini tahlil va tadqiq qilish, bu boradagi ilg'or g'oyalar, fikrlar, usul hamda uslublarni maktab ta'limi tizimi amaliyotida qo'llash muammolari. Texnologiya fani mazmuni va metodikasining pedagogik-psixologik, tibbiy-fiziologik asoslarini tadqiq etish. Texnologiya fani va kasbga yo'naltirish ishlari metodikasini takomillashtirishda fanlararo aloqalarning mohiyati va ahamiyati. Texnologiya fani va kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining tarixiy rivojlanish xususiyatlari va milliy qadriyatlarimizdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari. Barkamol shaxs tarbiyasida texnologik ta'lim va kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshirishning ilmiy-metodik asoslari. Texnologik ta'lim jarayonida ta'lim vositalaridan foydalanishning pedagogik asoslarini tadqiq etish. O'quvchilarning texnik ijodkorlik faoliyatini, konstruktorlik-texnologik bilimlarini shakllantirish va rivojlantirish muammolari. Texnologiya fanidan sinfdan hamda maktabdan tashqari ta'lim mazmuni va metodikasini takomillashtirish.

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (*maktab ta’limi yo’nalishi*) **ixtisosligi bo’yicha malakaviy imtihon savollari**

1. Ta’lim nazariyasi va metodlari. Metod haqida umumiy tushuncha va tavsifi.
2. Fanni o’qitishdagi asosiy vositalar: darslik, didaktik va metodik qo’llanma, jadval, model, sxema, kompyuter va boshqalar.
3. Ta’lim olish jarayonining umumdidaktik mohiyati va tuzilishini tavsiflang.
4. Ta’lim oluvchilar bilimi, ko’nikma, malaka va kompetensiyalarini tekshirish va baholashda nazorat ishlari, mustaqil ishlar, uy vazifalari, test sinovlarini ochib bering.
5. Ta’limda shaxsga yo’naltirilgan yondashuvga ko’ra ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyatini ochib bering. Misollar keltiring.
6. Fanni o’qitish metodikasining tadqiqot usullari, ularning nazariy hamda metodologik asoslari.
7. Ta’lim mazmuni, ta’lim mazmunini me’yorlovchi normativ hujjatlar.
8. Ta’lim metodlari, ularning klassifikatsiyasi. Interfaol metodlar.
9. Muammoli o’qitish texnologiyalari. Muammoli ta’limning xususiyatlarini misollar yordamida tushuntiring.
10. Sinfdan tashqari o’quv ishlarining shakllari: fan to’garaklari, studiyalar, olimpiadalar, tanlovlar.
11. O’quv ishlarini tashkil qilish shakllari: dars, ekskursiya, o’quv ustaxonalaridagi mashg’ulotlar, texnologik va ishlab chiqarish ta’limi shakllari, uy ishlari.
12. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda umummadaniy qadriyatlarga asoslangan ta’lim va tarbiya mohiyatini qiyosiy tavsiflang.
13. O’qitishning didaktik vositalari orqali o’quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi.
14. Hamkorlikda ta’lim olishning asosiy bosqichlari. Emotsional barqarorlik, pedagogik texnika, kreativ, abstrakt tafakkur.
15. Laboratoriya va amaliy, seminar mashg’ulotlarning mazmuni, tuzilishi va ularni o’tkazish metodikasini o’z mutaxassisligingiz doirasida ochib bering.
16. Reproduktiv hamda muammoli–izlanuvchi o’qitish metodlari o’rtasidagi farqni misollar bilan tushuntiring.
17. Davlat ta’lim standarti, ishchi va o’quv rejalar va ularning tuzilishi.
18. Fanni o’qitishda “Case study” texnologiyasidan foydalanish orqali o’quvchilarda mantiqiy fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirishning o’ziga xos jihatlarini bayon qiling. Keys materiallariga namunalar keltiring.
19. Fanlarni o’qitishda induktiv va deduktiv metodlardan foydalanish.
20. Pedagogik mahoratning komponentlarini misollar yordamida izohlang.

21. Zamonaviy ta'lim vositalarini tadbiq etishning pedagogik imkoniyatlarini misollar asosida ochib bering.
22. Xalqaro baholash dasturlari (TIMSS, PISA, PIRLS, TALIS) haqida umumiy tushuncha.
23. Fanni o'qitishda grafik organayzerlarning o'rni.
24. Mantiqiy va kognitiv metodlar sifatida taqqoslash va analogiya, umumlashtirish, abstraksiyalash, konkretlashtirish, induksiya va deduksiya, analiz va sintez metodlarini yoritib bering.
25. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar (masalan, loyiha asosidagi o'qitish, flipped classroom, virtual laboratoriyalar) ta'lim sifatiga qanday ta'sir qilishi mumkinligini misollar asosida sharhlang.
26. Didaktik tamoyillarning fanni o'qitish metodikasida pedagogik imkoniyatlarini ochib bering.
27. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish shakl, metod va vositalari.
28. Fanni o'qitishning empirik metodlarini misollar yordamida tavsiflang.
29. Fanni o'qitishning tashkiliy shakllarini misollar yordamida tushuntiring.
30. Reprodukativ bilishning nazariy materiallarni o'rganishdagi ahamiyati.
31. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodlarining (differensial, individuallashtirilgan) afzalliklarini misollar bilan tushuntiring.
32. Muammoli, didaktik, o'yinli, kontekstli, axborotli, multimediyali, o'z-o'zini rivojlantiruvchi texnologiyalar.
33. Ta'lim metodlari klassifikatsiyasi. Interfaol metodlarni qo'llash jarayonida o'qituvchining roli va funksional vazifalarini izohlang.
34. Pedagogning shaxsiy sifatlari va kasbiy mahorati.
35. O'quvchini rag'batlantirish metodlarining ta'lim samaradorligiga ta'sirini tushuntiring.
36. Fanni o'qitishda asosiy vositalar sifatida darsliklar, didaktik va metodik qo'llanmalar, jadvallar, modellar, axborot texnologiyalarining imkoniyatlarini ochib bering.
37. Raqamli ta'limni amalga oshirishda ta'lim subyektlari faoliyatini tavsiflang.
38. Ta'lim oluvchilarning fan bo'yicha o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari - kompetensiyalarini nazorat qilish va baholash tizimi.
39. Reprodukativ va muammoli-izlanuvchan o'qitish metodlari.
40. Dars tahlili: strukturasi, baholash va loyihalashtirish.
41. Fan bo'yicha sinfdan tashqari ishlar va ularning asosiy funksiyalari.
42. To'garak, fakultativ mashg'ulotlar va olimpiadalar tashkil qilishning me'yoriy asoslarini, pedagogik ahamiyati va o'ziga xos jihatlarini yoritib bering.

43. Fanni o'qitish metodikasining tadqiqot usullari va ularning nazariy hamda metodologik asoslari.

44. Faol o'qitish metodlari (muammoli, evristik, tadqiqot asosidagi)ning ilmiy asoslarini tahlil qiling va amaliy misollar bilan tushuntiring.

45. Raqamli texnologiyalar va gibrid o'qitish muhitining pedagogik samaradorligini tahlil qiling va misollar bilan izohlang.

46. Faol o'quv faoliyatini tashkil etishning metodik jihatlarini sharhlang va misol keltiring.

47. O'qitish va uning natijalarini nazorat qilish metodlari.

48. Darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasi.

49. Asosiy didaktik nazariyalarda shaxsni rivojlantirish bo'yicha qarashlarni qiyosiy tavsiflang.

50. Pedagogik texnologiya, pedagogik mahorat va o'qituvchining psixologik tayyorgarligi.

51. Amaliy mashg'ulot va uni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari.

52. Bilish nazariyasi ta'lim jarayonining metodologik asosi ekanligiga doir paradigmalarni izohlab bering.

53. O'zlashtirish jarayonining pedagogik va psixologik jihatlarini qiyosiy tavsiflang.

54. Ta'lim jarayonida metod, shakl va vositalarning integratsiyasini tashkil etish metodikasini real o'quv jarayoni misolida tahlil qiling.

55. Fanni o'qitishda axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan uzviy foydalanishning ahamiyatini qiyosiy tavsiflang.

56. Fanni o'qitishda o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan va rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali yuksak ma'naviyatli barkamol shaxsni voyaga yetkazish yo'llari.

57. O'qitishni individual, guruhli va ommaviy (frontal) tashkil etish shakllari hamda ularning didaktik ahamiyatini misollar yordamida izohlang.

58. Qo'shimcha ta'limning me'yoriy va didaktik asoslarini, uning pedagogik imkoniyatlarini misollar yordamida ochib bering.

59. Fanni o'qitishda loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasi.

60. Mustaqil ta'limni amalga oshirish muammolari va ularga variativ yechimlarga namunalar keltiring.

61. Fanni o'qitish metodikasining tadqiqot usullari va ularning nazariy hamda metodologik asoslari.

62. O'quvchini mantiqiy fikrlashga o'rgatish - ta'limning asosiy maqsadi ekanligi.

63. Fanda uzviylik va uzluksizlik masalalari, spiralsimon rivojlanish bosqichlari haqida qiyosiy tavsif bering.
64. Fanni o'qitishning empirik metodlari: kuzatish, tajriba, o'lchash.
65. O'qitish metodlari va ularni guruhlashtirishning nazariy va metodologik asoslarini yoritib bering.
66. Blum taksonomiyasini ochib bering.
67. Pedagogik tajribani o'tkazishning asosiy bosqichlari: tasdiqlovchi, shakllantiruvchi, ta'limiy, umumlashtiruvchi bosqichlar.
68. O'qituvchi faoliyatini rahbar, tarbiyachi, fasilitator sifatida izohlang.
69. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda kasb tanlashga yo'naltirish ishlarining mazmuni, uning tashkiliy-pedagogik, metodik va ilmiy asoslarining tahlilini keltiring.
70. Ta'limda sun'iy intellektdan foydalanishning imkoniyatlari va xavflarini qiyosiy baholang.
71. Ta'lim oluvchilarda yozma va og'zaki nutq madaniyatini rivojlantirish usul va vositalari.
72. Darsning psixologik-pedagogik tahlili, o'quvchi shaxsi va guruh jamoasi.
73. Fan bo'yicha laboratoriya, amaliy va seminar mashg'ulotlarning maqsadi, vazifalari, ta'lim-tarbiya jarayonida tutgan o'rni.
74. Pedagogik fanlarni o'qitishda matn tuzish texnologiyasi.
75. "Case study" - texnologiya, metod va vosita sifatida.
76. O'quvchilarda mustaqil, ijodiy, tahliliy va tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish metodlari.
77. Ta'lim maqsadlari va taksonomiyasi: rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi; o'quv faoliyati nazariyasi va uning subyekti; mazmunli umumlashtirish nazariyasi; aqliy xatti-harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi.
78. Fanni o'qitishda darslik bilan ishlash texnologiyasi.
79. Fan bo'yicha o'qituvchilarning malakasini oshirish hamda amaliy-metodik bilimlarini uzluksiz takomillashtirib borish masalalarini me'yoriy va o'quv-uslubiy jihatdan ochib bering.
80. Ta'lim sohasidagi tadqiqotlarning hozirgi global muammolari yoki tendensiyalari (masalan, raqamli ta'lim, inklyuzivlik, tenglik, ta'limda sun'iy intellekt) da sun'iy intellektning o'rnini ochib bering.
81. Ta'limning psixologik qonuniyatlari va ularni amalga oshirish mexanizmlari.
82. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida ta'lim mazmunini qiyosiy tavsiflang.
83. Ta'lim metodlarining pedagogik imkoniyatlarini misollar yordamida ochib bering. Dars tiplari va tuzilishi.
84. Ta'lim mazmunining milliylik va baynalminallik jixatlari hamda ularning ahamiyatini ilmiy va ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra baholang.

85. Umumdidaktik va xususiy o'qitish metodlarining o'zaro aloqadorligini ochib bering.

86. Summativ va formativ baholashni o'zaro qiyosiy tavsiflang.

87. O'qitishni tashkil etishning turli shakllariga misollar keltiring va ularning ahamiyatini asoslang.

88. Ta'limning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarini qiyosiy tavsiflang. Xalqaro tajribalardan misollar keltiring.

89. Bilish nazariyasi ta'lim jarayonining metodologik asosi ekanligiga doir paradigmalarni izohlab bering.

90. Ta'limning frontal, jamoaviy, guruhli, individual shakllarining o'ziga xos xususiyatlari va o'zaro aloqadorligi.

91. Geymifikatsiya usullarining didaktik samaradorligini tahlil qiling.

92. Rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi bo'yicha asosiy pedagogik qarashlar, ularda o'quv faoliyatini tashkil etish mazmunini ochib bering.

93. Ta'lim texnologiyalari tashxislanuvchi aniq maqsadlar va etalon asosida ta'lim jarayoni oldindan loyihalashtirish va kutilayotgan natijani kafolatlovchi tartiblangan, tizimlashtirilgan xatti-harakatlar, amallar va muammolar majmuasi sifatida.

94. Ta'limning og'zaki metodlari. O'qitishning induktiv va deduktiv metodlari.

95. O'qitish natijasini baholash psixologiyasi. Tashxislovchi, ogohlantiruvchi, joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari.

96. O'qituvchi va o'quvchi faoliyatini, o'qitish natijalarini baholashda xolislik va "formalizm"ga yo'l qo'ymaslik shart-sharoitlari.

97. Individual rivojlanishga yo'naltirilgan pedagogik muhitni yaratishning samaradorligini baholang.

98. Pedagogik tajribani o'tkazishda matematik-statistik metodlardan foydalanib olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish.

99. Pedagogik tajribani o'tkazishning asosiy bosqichlari: tasdiqlovchi, shakllantiruvchi, ta'limiy umumlashtiruvchi bosqichlar.

100. Fanni o'qitishda keys texnologiyasidan foydalanish va o'quv jarayoniga joriy etish metodikasi.

101. Klassik va zamonaviy ta'lim metodlarini taqqoslang va ularning amaliyotga ta'sirini misollar asosida izohlang.

102. Darsdan va sinfdan tashqari fan ta'limining maqsadlari.

103. Metodika. Metodikaning asosiy prinsiplari.

104. Fanni o'qitishda ta'lim vositalari, ko'rgazmali qurollar va o'qitishning texnik vositalari.

105. Fanni o'qitishda muammoli vaziyat, uning belgilari va tarkibiy qismi.

106. Ta'lim metodlari va ularni tanlashga qo'yiladigan didaktik talablar.

107. Uzluksiz ta'lim tizimining barcha boschiqlarida fanni o'qitishning innovatsion pedagogik faoliyatini amalga oshirish usullari.

108. Fanni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi.

109. Pedagogik texnologiyalarning asosiy turlari. Ularni qo'llashda o'qituvchi pedagogik mahorati.

110. Talim nazariya va uning amaliyotga bog'liqlik jihatlari.

Izoh: mazkur savollar namunaviy tavsifga ega bo'lib, dastur mazmunidan kelib chiqib savollar to'plami kengaytirilishi mumkin.

Baholash mezonlari

Eng yuqori ball - 100 ball

Saralash ball - 55 ball

55 balldan - 71 ballgacha (56- 70,9%) - qoniqarli

71 balldan - 86 ballgacha (71 - 85,9%) - yaxshi

86 balldan - 100 ballgacha (86 - 100%) – a'lo

1) talabgor javobi **86-100 ball** bilan baholanishi uchun:

- bilet savollarining barchasiga to'g'ri javoblar berilsa;
- dasturdan tashqari zamonaviy materiallardan xabardor bo'lsa;
- qonun-qoidalar, nazariya va taxminlar, tushunchalar va tasavvurlar to'g'ri bayon etilsa;

- bayonda ilmiy xatoliklarga yo'l qo'yilmay, material mazmunining ilmiy va mantiqiyliqi saqlansa.

2) talabgor javobi **71-85 ball** bilan baholanishi uchun:

- savollarga javoblar to'g'ri, ammo dastur talablari doirasida cheklangan;
- javoblarda ilmiylik buzilmagan;
- bayon mazmunida mantiq saqlangan;
- qonun-qoida, nazariya va taxminlar, tushuncha va tasavvurlar bayonida xatoliklar uchramasa;
- berilgan topshiriqlarning bittasiga to'liq javob berilmasa.

3) talabgor javobi **55-70 ball** bilan baholanishi uchun:

- savollarning uchdan ikki qismiga to'g'ri javob berilsa;
- savollarga berilgan javoblar yuzaki, ammo ayrim xatoliklarni hisobga olmaganda, umuman to'g'ri;
- bayonda ba'zan mantiqiy chalkashliklar qayd etilsa;
- qonun-qoida, nazariya va taxminlar, tushunchalar va tasavvurda ayrim noaniqliklarga yo'l qo'yilsa.

Quyidagi holatlarda talabgor javobi 55 dan past ball bilan baholanishi mumkin:

- savollarning uchdan ikki qismiga javob berilmasa, yoki umuman javob berilmasa;
- savollarga berilgan javoblar aniq bo'lmasa yoki noto'g'ri bo'lsa;
- savollarga berilgan javoblar noaniq va mantiqiy chalkash bo'lsa;
- ilmiy xatoliklarga yo'l qo'yilsa.

FOYDALANISHGA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan – URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni: 2020-yil 23-sentyabr, O'RQ-637-son – URL: <https://lex.uz/docs/-5013007>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni: 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son – URL: <https://lex.uz/docs/-4312785>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni: 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son – URL: <https://lex.uz/docs/-5841063>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni: 2022-yil 11-may, PF-134-son – URL: <https://lex.uz/docs/-6008663>.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori: 2021-yil 25-yanvar, PQ-4963-son – URL: <https://lex.uz/docs/-5239538>.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori: 2022-yil 17-yanvar, 25-son – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5828765>.
8. "Ta'lim – 2030" Inchxon deklaratsiyasi. – Inchxon: Janubiy Koreya. 2015.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

9. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
10. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592 b.
11. Mirziyoyev Sh. M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 508 b.

Asosiy adabiyotlar

12. Vaxobov X., Zaynutdinov A. Geografiya o'qitish metodikasi. T. "Universitet", 2001y, 80 b.
13. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg'ulotlar: Pedagogika instituti talabalari uchun qo'llanma. - T.: O'qituvchi, 1995y.
14. Musurmonova O., Ibragimov X., Jamoldinov O. Umumiy pedagogika. Darslik. I qism. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 376 b.
15. Mavlonova R. A. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 528 b.
16. Madiyarova S.A. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: "Iqtisod-moliya" 2009 y.
17. Raxmatullayev N.G., Omonov X.T., Mirkomilov Sh.M. Kimyo o'qitish metodikasi. Toshkent. Nizomiy nomidagi TDPU, Elektron versiyasi -2008y.
18. Rixsiboyev T. Muxandislik kompyuter grafikasini o'qitish metodikasi (o'quv qullanma). ToshDTU, 2009y.
19. Saidaliyev S. (tarjimon). Chet tili o'qitish metodlari. - Namangan: NamDU, 2005y.
20. Sattarov T. Bo'lajak chet tili o'qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi (ingliz tili materialida). - T.: TDYUI, 2003y.
21. Tuxliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. T.: "Yangi asr avlodi". 2006y.
22. Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008 y.
23. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar- T.:Iste'dod. 2010 y.
24. Ismailov A., Daminov H., Karimov N., Ahmedov X., Tog'ayeva G., Qosimova Z. O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan axborotnoma. 1-son. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari, soha mutaxassislari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun mo'ljallangan test topshiriqlari to'plami. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 145 b.
25. Jumanazarov S. Ta'limda raqamli texnologiyalar. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: 2023. – 46 b.
26. Ishmuhamedov R. J, Yuldashev M. A. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2013. – 96 b.
27. Tolipova J. O. Pedagogik texnologiyalar – do'stona muhit yaratish omili. – Toshkent: UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi, 2005. – 128 b.

Internet manbalari

1. <https://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi ma’lumotlar bazasi
2. uzedu.uz – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy sayti.
3. <https://www.avloniy.uz> – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti rasmiy web sayti
4. <https://maktab.uz> – Videodarsliklar kutubxonasi
5. <https://uz.khanacademy.org> – Khan Academy Uzbek ta’lim platformasi
6. <https://utube.uz> – Ziyonet tarmog‘i ta’lim videoportali